AMIR TEMUR HAYOTINING O'IGA XOS JIXATI.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Namangan filiali talabasi

Abdurohmonov Muhammadali

Mabduraxmonov732@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu Maqolada XIV-XV asirlarda yashab o'tgan Amir Temur hayoti xaqida batafsil yoritishga harakat qilindi. Temur Yevroosiyo dashtlarining so'nggi yirik ko'chmanchi fotihi edi va uning saltanati XVI-XVII asrlarda yanada tartibli hamda barqaror bo'lgan islom imperiyalari yuksalishi uchun zamin yaratdi. Amir Temur o'zini „Islom qilichi" deb atagan. Hukmronligining oxiriga kelib, Temur Chig'atoy ulusi, Hulokuiylar davlati va Oltin O'rdaning barcha qoldiqlari ustidan to'liq nazorat o'rnatdi, hattoki Xitoyda Yuan sulolasini qayta tiklashga urindi

Kalit so'zlar: Amir temur. Amir tarag'ay terek o'zgan Amir xusayin**.**

Аннотация:

В этой статье предпринята попытка подробно описать жизнь Амира Тимура, жившего в XIV и XV веках. Тимур был последним великим кочевым завоевателем евразийских степей, и его правление проложило путь к возникновению более упорядоченных и стабильных исламских империй в XVI и XVII веках. Амир Тимур называл себя «Мечом ислама». К концу своего правления Тимур установил полный контроль над Чигатайскими улусами,

государством Хулукуи и всеми остатками Золотой Орды, и даже попытался восстановить династию Юань в Китае.

Abstract:

Timur was the last great nomadic conqueror of the Eurasian steppes, and his reign paved the way for the rise of the more orderly and stable Islamic empires of the 16th and 17th centuries. Amir Timur called himself the "Sword of Islam". By the end of his reign, Timur had established complete control over the Chigatai ulus, the Khulukuy state, and all the khanates of the Golden Horde, and even attempted to restore the Yuan dynasty in Sitia

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilganligi haqida ilk ma'lumotlarni arab muarrixi Ibn Arabshox (1389-1450) ning Amir Temur haqidagi ma'lumotlar (Amir Temur tarixida taqdir ajoyibatlari asarida uchraydi) Muiniddin Natanziy esa o'zining 1414-yil yozilgan ("Muntaxab ut-tavorixi Muiniy") asarida Amir Temurni Niyozi qishlog'ida tug'ilganini aytadi. Lekin bu qishloqning o'rni munozarali. Amir Temurning otasi Tarag'ay bahodir (vafoti 1360-yil) Kesh viloyatining nufuzli amirlaridan bo'lgan. Tarag'ay bahodir haqida asil manbalarda to'iq keltirilmagan. Sharofidin Ali Yazdiyning yozishicha. Tarag'aybek ulamo va sulaho va muttaqiylarga mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdim…deb yozgan . Shu bilan birga manbalardan birida yozilishicha, Niyoziy (Achig'i) qishlog'i. Amir Temurning merosiy mulki hisoblangan Demak bu qishloq uning otasi Tarag'ay bahodirga Tegishli bo'lgan. Shunga ko'ra xulosa qilish mumkunki, Amir tarag'ay har holda zamonasining o'ziga to'q kishilardan hisoblangan. Bu holat tabiy ravishta Amir temurning yoshligidanoq modiy jihatdan taminlangan[1. B. 30-32.] Bo'lajak hukmdor va sarkardaning bolalik hamda o'smirlik yillari o'zining tug'ilgan shahri yaqinida

o‘tgan. Temur yoshligidan musobaqalar, ov va harbiy o‘yinlarni yaxshi ko‘rardi. U nayza otish va kamondan o‘q uzishda mohir edi. O‘n yoshidan boshlab uning ustozlari — otasining saroyida xizmat qilgan otabeklar — ta’limiga yetarlicha e’tibor qaratmasdan, uni astoydil jangchi qilib tarbiyalaydi. Faqatgina Temurning tug‘ma zukkoligi va tirishqoqligi unga Qur’oni Karimni yod olish imkonini berdi Temur bir muddat Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida yashab, mo‘g‘ullarga qarshi partizanlarcha kurash olib boradi. Shunday yurishlarning birida u qo‘li va oyog‘idan og‘ir yaralanib, umrbod oqsoq bo‘lib qoladi va bu unga Temurlang (Oqsoq Temur) laqabini beradi. O‘rta asr fors va turkiy manbalarida Temurni “Sohibqiron”, ya’ni ikki sayyora: Zuhro (Venera) va Mushtariy (Yupiter) yoxud Zuhro va Quyoshning yaqinlashuvi paytida tug‘ilgan, majoziy ma’noda esa baxtli, deb ham atashgan. Bu davrda Chig‘atoy ulusining sharqiy qismi — Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo‘g‘ul xonlari Movarounnahrdagi og‘ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu yerda o‘z hokimiyatini o‘rnatishga harakat kiladilar. Jeta xonlaridan Tug‘luq Temur va uning vorisi Ilyosxoja 1360-1365- ylarda Movarounnahrga bir necha bor bostirib kiradilar. Mo‘g‘ul xonlarining boskinchilik yurishlari va zulmiga karshi xalq harakati boshlanadi. Biroq, Movarounnahr amirlari xalqqa bosh bo‘lib, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashga jur’at eta olmaydilar. Ularning bir qismi dushman tarafiga o‘tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtni tark etib, o‘zga mamlakatlardan boshpana izlaydilar. Amir Temurning amakisi, Kesh viloyatining hukmdori amir Hoji barlos Xurosonga qochadi. Mana shunday og‘ir pallada siyosat maydoniga Amir Temur kiradi. Mo‘g‘ullarga qarshi turish uchun kuchlar nisbati teng emasligini hisobga olgan 24 yoshli Amir Temur 1360-y. ning boshida Tug‘luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan xon xizmatiga o‘tib, uning yorlig‘i bilan o‘z viloyatining dorug‘asn etib tayin qilinadi. Shubhasiz, bu noilojliqdan qo‘yilgan siyosiy hamda

strategik qadam bo‘lib, bu b-n A. T. mo‘g‘ullarning navbatdagi talontarojining oddini olgan, mamlakat va xalqni falokatdan qutqargan edi. Biroq, Movarounnaxrning hukmdori etib tayin qilingan Ilyosxoja va uning lashkarboshisi amir Bekkichik bilan Amir Temurning murosasi kelishmay qoladi. Shu sababdan 1361-y. ning oxirida u mamlakatni tark etishga majbur bo‘ladi. Amir Temurning yana bir raqibi — qaynog‘asi amir Husayn bilan uchrashadi. Amir Temur mo‘g‘ullar bilan kurashish maqsadida u bilan birlashib, ikkovlon kuch to‘plashga kirishadi. Dastlab ular Tug‘luq Temurxonning farmoniga binoan Amir Temurni ta’qib qilishga kirishgan Xiva dorug‘asi To‘qol (Tavakkal) bilan jang qiladilar. So‘ngra 1362-yilning kuzida Seistonda viloyat hukmdori Malik Qutbiddinning tarafida turib mekroniylar bilan bo‘lgan to‘qnashuvda Amir Temur o‘ng qo`l tirsak qismi va o‘ng oyog‘ining bolder qismidan jarohatlandi. [73.74] Takidlash lozimki, 1377-yilga qadar Jo’chi ulusi ikki mustaqil davlatdan, o'ng qanot - Oltin O'rda, chap qanot - Oq O'rdadan iborat bo'lgan. Oltin O'rda tarkibiga Xorazmning shimoliy qismi, Shimoliy Kavkaz, Bulg or yerlari, G'arbiy Sibir, Qrim kirgan. Oq O'rdaga esa Sirdaryoning quyi oqimi, Sirdaryo bo'ylaridan Sibirdagi Tuman degan joygacha bo'lgan yerlar kirgan. XIV asr 70-yillarida Oq O*rda hokimlaridan biri bo'lgan O'rusxon Jo'chi ulusini birlashtirib, uni kuchli davlatga aylantirish harakatlarini olib bordi. Agar Jo'chi ulusi birlashsa, u butun O'rta Osiyo, Rus va boshqa yerlarga yana tahdidni boshlar edi. Shubhasiz, Amir Temur buni yaxshi tushunar edi. 1376-yili O'rusxon uluslarni birlashtirish uchun chaqirgan qurultoyda unga qarshi bolgan kishilamni o'limga mahkum etdi. Ular orasida Minggishloq hokimi To'yxo'ja o'g'lon ham bo'lgan. To'yxo'janing o'g'li To'xtamishxon o'z hayoti xavfsizligini o'ylab, Samargandga, Amir Temur huzuriga gochib keldi. Amir Temur unga muruvvat ko'rsatib, hokimiyatni olish yo lida yordam berdi. To'xtamishxon o'z ragiblaridan uch marotaba mag'lubiyatga uchrasa-da, har gal Amir Temur uni oyoqqa turg'izishga yordam berdi. Oq O'rda xoni

O'rusxon Amir Temurga qarshi jang qilishga botina olmadi. O'rusxonning To'xtamishxonni unga qaytarish to'g'risidagi murojaatiga Amir Temur rad javobini berdi. O'rusxon vafotidan so'ng, Amir Temur. To'xtamishxonga 1377-yili taxtni uzil-kesil egallashiga yordam berdi. Shimolda To'xtamishxonning taxtga chiqishi Amir Temur saltanati xavf-xatardan saqlanishga yordam berishi, qolaversa, ishonchli ittifoqchi yuzaga kelishidan Sohibqironning o'zi ham shubhasiz, manfaatdor edi. Lekin, To'xtamishxon berilgan yordam, ko'rsatilgan muruvvatni, non-tuz haqini tezda unutdi. Ikkala o'rdani birlashtirib olgach, talonchilik va jabr-zulmni kuchaytirdi. Rus, Volga bo'yi, Shimoliy Kavkaz xalqlari uning zulmidan qattiq aziyat cheka boshladilar. [3] To'xtamishxon 1385-yili Amir Temur davlatiga qarashli Ozarbayjonni egallashga harakat qildi. Qolaversa, Xorazm hokimi Sulaymon So 'fini ham o' z tomoniga og dirib, Amir Temur davlati bilan chegaradosh yerlarni talon-taroj qildi. Ta'kidlash lozimki, Amir Temur o'z oldiga Oltin O'rda davlatini tugatishni maqsad qilib qo'ymagan edi. Aksincha, u o' zaro hamjihatlik va hamkorlik aloqalarini o'rnatish tarafdori bo'lgan. Qolaversa, To'xtamishxonni hokimiyatga olib chiqayotganda ham yuqoridagi maqsadlarga tayangan edi. Oltin O'rdaga qarshi harbiy harakatlar avvalo o'z saltanatini xavf-xatardan muhofaza etish, uning harbiy kuch-qudratiga xavf solmaslik uchun tegishli zarba berish bilan izohlanar edi.[4] 1388-yil yanvarida Amir Temurning qaytishini kutgan dushman orqaga qayta boshladi. Sohibqiron o'z amirlaridan Husayn, Shayx Ali Bahodir va boshqalarga dushmanni daf qilish vazifasini topshirdi. Ular katta talofat yetkazdilar. Sirdaryo bo'yidagi Sarisuv degan joyda dushmanni quvib yetib, unga kata talofat yetgazdilar [2. B.71.72] to’xtamishxon 1388-yil oxirida Amir Temurga qarshi qayta hujum boshladi.m U Elyig'mish o'g'lon boshchiligida Movarounnahrga katta qo shin jo natdi. Amir Temur unga garshi nomdor sarkardalaridan iborat qo shinlarni yuboradi. Ularga Andijondan shahzoda Umarshayx Mirzo qo 'shini ham kelib qo’shildi. Ammo jang davomidagi taktik

tufayli, Umarshayx Mirzo boshchilik qilayotgan qalb (markaz) dushman qo shinlari tomonidan qurshab olinib, asosiy go 'shindan uzib qo 'yiladi. Natijada, Umarshayx. Mirzo O'zgandga, golgan amirlar Samargandga gaytib mudofaa ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Bu orada, Mo'g'uliston dug' lat amirlaridan bo'lgan Ango To'ra 20 minglik qo shin bilan Farg'ona vodiysiga bostirib kiradi. Natijada, Samargand va Buxoro, shuningdek, O'zgand shaharlari atrofi Oltin O'rda va Jeta lashkari tomonidan talon-taroj gilinadi. Amir Temur qahraton qish bo'lishiga qaramay, kurashga otlanib To'xtamishxon tomonidan yuborilgan qo'shinni tor-mor etirdi.[5] Elyig'mish ikkala tomondan o'rab olinib, mag'lub etildi. 1389-yil fevral - martida esa Sirdaryodan o'tib, mo'g'ul qo'shinlarini Oltomg'agacha ta'qib etib bordi. Amir Temurning Toxtamishxonga qarshi navbatdagi kurashga tayyorgarligi 1390-yil kuzida boshlandi. U o'z qarorgohini Chinozga kochirib, qishni shu yerda o'tkazdi hamda umumiy safarbarlik e'lon qildi. Yurish deyarli 6 oyga cho'zildi. 1391-yil 18-iyunda Samara va Chistopol oralig ida joylashgan Qunduzcha degan tekislikda bo'lib o'tgan jangda To'xtamishxon qo'shini tor-mor etildi. Mazkur jangda Amir Temur ilk bora yangi taktik usulni qo llab, qo'shinni «yetti muarrixlar tomonidan «Kirpi» deb nomlangan. Amir Temur. Ozarbayjonga yetib kelganida va uning qo'shini Sultoniya va Hamadon qirolliklariga bostirib kirganida, u Mardin sultoni Malik Azzahirni chaqirtirdi. U uni ozod qildi va yuqorida aytib o'tilganidek, mehribonlik bilan muomala qildi, uni qirollikda tasdiqladi va unga Suriya va Iroq o'rtasidagi mamlakatlarning hokimligini ishonib topshirdi va bu qirolliklarni iloji boricha hiyla-nayrang va taqlid bilan o'z hukmronligi ostida ushlab turdi Amir Temur 1411-yildan 1449-yilgacha Markaziy Osiyoni boshqargan astronom va matematik, Temuriy degan dep nom oldi.[5]

Xulosa.

Buyuk sarkarda: U juda ko‘p janglarda g‘alaba qozongan va ulkan imperiya tuzgan.

Davlat quruvchi: Movarounnahrni birlashtirib, kuchli markazlashgan davlat barpo etgan. Adolatga e'tibor: "Kuch — adolatda" degan tamoyilni asos qilgan Qurilish va obodonchilik: Samarqand, Shahrisabz kabi shaharlarni rivojlantirgan, ko'plab madrasa va masjidlar qurdirgan. Xalqaro siyosat: Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq davlatlari bilan siyosiy aloqalar o'rnatgan. Ilm-fan homiysi: Olimlar, shoirlar va san'atkorlarni qo'llab-quvvatlagan.

Foydalanilgan Adabiyotlar.

1. kAbar Zamonov. O'zbekiston Tarixi, 3 qism. T.: Bayoz, 2023. 670 b.
2. Akbar Zamonov. O'zbekiston Tarixi, 3 qism.B.73.74. T.: Bayoz, 2023. 670 b.
3. O'zbekiston tarixi (III jild). **– Toshkent:** Fan**, 2013. – 120–130-betlar**
4. Azamat Ziyo. ***O'zbek davlatchiligi tarixi.*** **– Toshkent:** Sharq**, 2000. – 143–152-betlar.**
5. R. G. Mukminova. ***Buxarskoe khanstvo v XVI–XIX vv.*** **– Toshkent:** Fan**, 1992. – 176–184-betlar.**